JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 1 - fevral 16-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumani hududidagi ijtimoiy soha obyektlari joylashgan ko‘chalarda avtomobillar harakatini tartibga soluvchi yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 199-sonli xatini hamda fuqarolarning murojaatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 15-dekabrdagi 199-sonli xati hamda fuqarolarning murojaatlari inobatga olinsin.

2. Tuman hududidagi umumta’lim maktablari joylashgan ko‘chalarda avtomobillar harakatini tartibga soluvchi yo‘l belgilarni o‘rnatish ro‘yxati 1-ilovaga hamda Sh.Rashidov ko‘chasi bo‘ylab joylashgan ijtimoiy soha obyektlari atrofiga sun’iy notekislik o‘rnatish ishlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga tuman hududidagi umumta’lim maktablari joylashgan ko‘chalarda avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi U.Norjigitov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**

Paxtakor tuman hokimining
2023 yil 1 fevraldagi
16-3-52-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Paxtakor tumani hududidagi umumta’lim maktablari joylashgan ko‘chalarda o‘rnatiladigan avtomobillar harakatini tartibga soluvchi yo‘l belgilari

RO‘YXATI

№	Muassasa nomi	Ko‘cha nomi	Yo‘l belgisi
1	1-sonli umumta’lim maktabi	“Paxtakor” MFY, Abu Nosir Farobiy (F.Xo‘jaev ko‘chasi)	
2	2-sonli umumta’lim maktabi	“Do‘stlik” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi	
3	3-sonli umumta’lim maktabi	“Buyuk ipak yo‘li” MFY, Zomin ko‘chasi	
4	4-sonli umumta’lim maktabi	“Samarqand” MFY, Samarqand ko‘chasi	
5	5-sonli umumta’lim maktabi	“Mingchinor” MFY, Kamoliddin Bexzod ko‘chasi	
6	6-sonli umumta’lim maktabi	“Bog‘ishamol” MFY, O‘zbekiston ko‘chasi	
7	7-sonli umumta’lim maktabi	“Chamanzor” MFY, Yangi hayot ko‘chasi	
8	8-sonli umumta’lim maktabi	“Olmazor” MFY, Anorli (Do‘stlik) ko‘chasi	3.24 “Yuqori tezlik chegaralangan” (30 km/soat)
9	9-sonli umumta’lim maktabi	“Dilorom” MFY, Dilorom ko‘chasi	
10	11-sonli umumta’lim maktabi	“Buyuk ipak yo‘li” MFY, Al Farg‘oniy ko‘chasi	1.20 (piyodalar o‘tish joyi)
11	12-sonli umumta’lim maktabi	“Paxtakor” MFY, Abu Nosir Farobiy (F.Xo‘jaev ko‘chasi)	5.46 “Maktab”
12	13-sonli umumta’lim maktabi	“Oq buloq” MFY, Al-Xorazmiy ko‘chasi	5.16 va 5.16.1 (zebra)
13	14-sonli umumta’lim maktabi	“Nurli Pangat” MFY, Ma’naviyat ko‘chasi	
14	15-sonli umumta’lim maktabi	“Suvonobod” MFY, Mirishkor ko‘chasi	
15	16-sonli umumta’lim maktabi	“Mingchinor” MFY, Boboraxim Mashrab (Mustaqillik) ko‘chasi	
16	17-sonli umumta’lim maktabi	“Bog‘ishamol” MFY, Diyorobod (E.Xolmatov) ko‘chasi	
17	18-sonli umumta’lim maktabi	“Oq buloq” MFY, Paxtachi ko‘chasi	
18	19-sonli umumta’lim maktabi	“Paxtakor” MFY, Baxmal (Chamanzor-2) ko‘chasi	
19	20-sonli umumta’lim maktabi	“Olmazor” MFY, Ona zamin ko‘chasi	

Paxtakor tuman hokimining
2023 yil 1 fevraldagi
16-3-52-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Sh.Rashidov ko‘chasi bo‘ylab joylashgan ijtimoiy soha obyektlari atrofiga sun’iy notekislik o‘rnatish

RO‘YXATI

№	Muassasa nomi	Ko‘cha nomi	Yo‘l belgisi
1	2-sonli umumta’lim maktabi	“Toshkent” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi	1.31 “Sun’iy notekislik”
2	31-sonli ixtisoslashtirilgan maktabi	“Toshkent” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi	
3	Tuman tibbiyot birlashmasi	“Toshkent” MFY, Sh.Rashidov ko‘chasi	